AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	
"O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH JARAYONLARI	1152
Fayzieva Dilafruz Shuhratovna	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	
KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	1161
Bobomirzayev Isroil	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ.....	1165
АскарOVA Мавлуда Турабовна	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1171
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	1176
Muxitdinova Difuza Farxodovna	
KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH	1206
Suyunov Yorqin Bekmurodovich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI	1251
Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI	1282
Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTEKLEKTNING (SI) TA'SIRI	1290
Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	
TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI	1305
Saidakbarov Saidazam Aziz o'g'li	
KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBİ	1309
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	



ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI	1314
S.S. Ismatillaeva	



ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI

S.S. Ismatillaeva

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: Sitorabonu2012@gmail.com

Annotatsiya. Onlayn bronlash tizimlarining bugungi kunda shu qadar ko'p turlari tarqalmoqdaki, ular insonlarning ayrim sohalardagi zaruriy ehtiyojlarini raqamli tarzda qondirish va ularning vaqtini tejash uchun samarali xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu maqolada onlayn bronlash tizimlarining aniq sohalarga yo'naltirilgan platformalari, ularning dasturiy xarakteristikalarini, ishlash tartibi, o'ziga xos xususiyatlari va bir-biridan farqli ravishdagi tomonlari bilan tanishib chiqish mumkin.

Kalit so'zlar: onlayn bronlash tizimlari, raqamli xizmatlar, turizm xizmatlari, raqamli transformatsiya, mobil bronlash, sun'iy intellekt.

Abstract. Today there are so many types of online booking systems that provide an effective digital service for the needs of people in certain areas and help them save their time. In this article, you can learn about the platforms of online booking systems focused on specific areas, their software characteristics, operating procedures, unique features and differences from each other.

Key words: Online booking systems, digital services, tourism services, digital transformation, mobile booking, artificial intelligence.

Аннотация. Сегодня существует множество типов онлайн-систем бронирования, которые предоставляют эффективные цифровые услуги, отвечающие потребностям людей в определенных областях и помогающие им экономить время. В этой статье вы узнаете о платформах онлайн-бронирования, ориентированных на конкретные регионы, характеристиках их программного обеспечения, принципах работы, уникальных особенностях и различиях между ними.

Ключевые слова: системы онлайн-бронирования, цифровые услуги, туристические услуги, цифровая трансформация, мобильное бронирование, искусственный интеллект.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog'lanib borayotgan hayotimizning ko'pgina jabhalarida ulardan foydalanish sonining oshayotgani, masalalarning esa ijobiy hal bo'layotgani bugungi kunda hech kimga sir emas. Ko'p tarmoqlarni o'ziga jamlagan turizm sektorida ham bir necha yillardan buyon raqamli texnologiyalarning yuzdan ortiq turlaridan xizmat jarayonida qo'llanmoqda. Dasturiy ta'minotlarning bajariladigan funksiyalari, ma'lum bir yo'nalishga yo'naltirilganligi, belgilangan maqsadlariga qarab ularni turli xil guruhlariga ajratib olish ham mumkin.

Birgina turizmning o'zida avia qatnovlar, ularning reyslari, uchish marshruti va davomiyligi, aviakompaniyalar va hatto samolyotlarning turigacha aloqador bo'lgan ma'lumotlar bazasidan iborat maxsus dasturlar bir necha yillardan beri millionlab foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, turizm sektorida alohida muhim bo'lak hisoblangan mehmonxonalar ham platformalar asosida kategoriyalarga bo'lingan holda tashrif buyuruvchining tanlovi doirasida taqdim etiladi.

Bunda foydalanuvchi mehmonxonalarni tashrif buyuruvchining tanlagan manzili, uning borish istagida bo'lgan destinatsiyasigacha masofasi, mehmonxonaning turi va uning darajasi, turar joy yon atrofidagi manzillar va imkoniyatlar, xonaning afzalliklari hamda boshqa bir qator xususiyatlarga ko'ra o'ziga ma'qul bo'lgan tanlovni amalga oshirish jarayonini ham osonlashtiradi, ham tezlashtiradi.

Event management rivojlanayotgan bir paytda foydalanuvchilar uchun tadbirlarni rejalashtirishni ham raqamli tarzda amalga oshirishga mo'ljallangan dasturlar talaygina. Tadbirning mavzusi, uning qamrovi,



mavzuga mos manzili, dekoratsiyalar va boshqa barcha kichik elementlarni ham aynan bir dastur orqali tayyor andozada yaratish mumkin. O'z xohishi va didiga mos ravishda ovqatlanishni sevuvchi insonlar, boshqa bir mamlakatga yo'l olgan sayohatchilar, ish doirasidagi uchrashuvlarni estetik atmosferada tashkillashtirmoqchi bo'lgan tadbirkorlar uchun ham zarur tizimli platformalar ancha qo'l keladi. Ularning xarakteristikallari va ishlash prinsiplari esa birma-bir yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarda onlayn bronlash tizimlarini turizm texnologiyalari bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri Buhalis (2020) onlayn bronlash tizimlari turizm sanoatini transformatsiya qilganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, Global Distribution Systems (GDS) — Amadeus, Galileo, Sabre — dastlab aviakompaniyalar uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, keyinchalik mehmonxona, avtokirovka va ko'ngilochar xizmatlarni ham o'z ichiga olgan murakkab bronlash platformalariga aylandi. Buhalis raqamli turizmning asosiy omillari sifatida real vaqt ma'lumot almashinuvi, API integratsiyasi va dinamik narxlash (dynamic pricing)ni ko'rsatadi.

Rob Law (2015) va P. O'Connor (2010) tadqiqotlari esa mehmonxona sanoatida bronlash tizimlarining rivojlanishida iste'molchi xatti-harakatlari, veb-sayt dizayni va mavjudlik ma'lumotlarining aniqligi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Zheng Xiang (2017) izlanishlariga ko'ra, OTA-lar foydalanuvchilarning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omil — bu foydalanuvchi sharhlari (user-generated content) ekanini ko'rsatadi. Sharhlar bron qilish ehtimolini oshiradi va narxga bo'lgan sezgirlikni kamaytiradi. Bundan tashqari, Gretzel & Yoo (2008) onlayn sharhlar mehmonxona reytinglarini shakllantirishda muhim ijtimoiy ishonch mexanizmi bo'lib xizmat qilishini aniqlagan.

So'nggi yillarda mobil ilovalar bronlash tizimlarining asosiy yo'nalishiga aylandi. Morosan (2014) tadqiqotlarida mobil bronlash tizimlarining afzalliklari sifatida qulaylik, lokatsiya asosida xizmatlarni tavsiya etish va to'lov texnologiyalarining (Apple Pay, Google Pay) integratsiyasi qayd etiladi. Sigala (2018) mobil bronlashning shaxsiylashtirilgan tavsiyalar (personalization) orqali konversiya darajasini sezilarli oshirishini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida onlayn bronlash tizimlari va ularning xususiyatlari, funksiyalari, foydalanuvchi bilan ishlash jarayonlari nazariy tahlil metodi orqali shakllantirilgan bo'lsa, tizimlarning afzalliklari va bir-biridan ajralib turuvchi belgilarini aniqlash qiyoslash metodlari yordamida ko'rsatib berildi. Kontent-tahlil metodi orqali onlayn platformalarning (Booking.com, Airbnb, Amadeus, Zocdoc) interfeysi va funksiyalari o'rganildi. Sistemali yondashuv asosida bronlash tizimlarining texnologik strukturasi tahlili olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aviatsiya sohasida onlayn bronlash tizimlari — bu mijozlarga internet orqali aviabiletlarni qidirish, solishtirish, tanlash va xarid qilish imkonini beruvchi raqamli platformalardir. Ular global aviatsiya ekotizimining eng muhim infratuzilmasi hisoblanadi. Avia bronlash tizimlarining quyidagi asosiy turlarini sanab o'tish mumkin.

GDS (Global Distribution Systems) — aviakompaniyalar bilan bir qatorda mehmonxonalar, avtokirovka kompaniyalari va agentliklarini global tarmoq bilan bog'laydi. GDSlarning bugungi kungacha Amadeus, Sabre, Galileo (bugungi kunda Travelport) va Worldspan kabi eng mashhur tizimlaridan foydalanib kelinmoqda. Bu tizimlarning vazifalariga mavjud bo'lgan millionlab parvozlar haqidagi ma'lumotlarni foydalanuvchilarga real vaqt kesimida uzatib turish, parvoz narxleri va mavjud bo'lgan o'rinlar holati bo'yicha yangilanishlarni doimiy amalga oshirish, agentliklar orqali bajariladigan bronlarni muntazam boshqarish kiradi.

Airline Reservation System (aviakompaniyaning ichki bronlash tizimi). Bu tizimlarning boshqalardan farqli jihati shundaki, ular ma'lum bir aviakompaniyaning faqat o'ziga tegishli markaziy rezervatsiya tizimi sifatida faoliyat olib boradi. Bunga misol tariqasida Lufthansa CRS, Emirates SkyChain va o'zimizning Uzbekistan Airways Reservation Systems'ni keltirish mumkin. Bu tizimlarning vazifalariga parvoz jadvalarini boshqarish, mavjud bo'lgan o'rinlarni taqsimlash (seat inventory), biletlarni narx kategoriyalari bo'yicha ko'rsatish va chiptalarning onlayn bron qilinishini nazorat qilish kiradi.

OTA (Online Travel Agencies) — onlayn agentliklar. Bu platformalar shunday yaratilganki, foydalanuvchilar ular orqali barcha aviakompaniyalar biletlarini bir joyda solishtirish va o'zlari uchun eng maqbul variantni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Onlayn agentliklarning eng ko'p tarqalgan turlariga Booking.com (flights), Skyscanner, Kayak, Expedia va Trip.com'ni sanab o'tish mumkin. Ulardagi narx solishtirish algoritmlari, arzon reyslarni qidirish imkoniyatlarining kengligi, qidiruvni osonlashtirish uchun zarur filtrlarni tizimlashtirish (transit, bagaj va qulay vaqt) kabi funksiyalar foydalanuvchilar uchun ayni muddao hisoblanadi.



Yana shunday tizimlar borki, ular bir nechta OTA va GDSlarda mavjud bo'lgan manbalardagi ma'lumotlarni yig'ish orqali ishlaydi. Bunday tizimlar bugungi kunda agregator tizimlar sifatida taqdim etiladi. Google Flights va Momondo shu turdagi tizimlarning eng mashhurlaridir. Ularning ajralib turadigan xususiyatlariga statistika asosida tavsiyalar berish imkoniyati kiradi (1-jadval).

1-jadval. Eng ko'p foydalaniladigan avia onlayn bronlash tizimlari¹

No	Platforma	Tizim turi	Taxminiy bozor ulushi	Oylik foydalanuvchilar/kirishlar	Asosiy xususiyat
1	Booking.com (Flights)	Onlayn agentliklar	~19%	400+ million kirishlar	Parvozlar+ Mehmonxonalar
2	Expedia	Onlayn agentliklar	~12-13%	100+ million foydalanuvchilar	Parvozlar, Paketlar, Sodiqlik dasturlari
3	Skyscanner	Metaqidiruv	~9%	100+ million foydalanuvchilar	Narxni taqqoslash, moslashuvchan sanalar
4	Google Flights	Metaqidiruv	~10-11%	100+ million qidiruvlar	Narxlarni kuzatish, tezkor qidiruv
5	Kayak	Metaqidiruv	~8%	80+ million foydalanuvchilar	Bashorat qilish, ogohlantirishlar
6	Trip.com	Onlayn agentliklar	~9-10%	300+ million foydalanuvchilar	Xalqaro va Osiya bozorlariga e'tibor
7	Hopper	Onlayn agentliklar/ Ilova	~7-8%	70+ million yuklab olishlash	AI narxini bashorat qilish

Turizmda bugungi kunda eng ko'p ehtiyoj sezilayotgan yana bir tarmoq mavjudki, bu transport vositalarini vaqtinchalik ijaraga olish bilan bog'liq hisoblanadi. Aynan shu tizimda ham sayohatchilarga qulaylik va imkoniyat yaratish uchun transport vositalarini ijaraga berishning ko'plab onlayn dasturlari ishlab chiqilmoqda. Avtomobil ijarasini onlayn bron qilish tizimlari foydalanuvchilarga veb yoki mobil interfeyslar orqali avtomobil ijarasini qidirish, mashina modeli va ijara narxlarini solishtirish, zaxiralash va boshqarish imkonini beruvchi raqamli platformalardir. Ushbu tizimlar real vaqt rejimida transport vositalarining inventarizatsiyasi, narxlari, mavjudligi, to'lovlarni qayta ishlash va mijozlarni boshqarishni birlashtiradi. Ular yer usti transporti va turizm xizmatlarining raqamli transformatsiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylandi.

Bugungi kunda avtomobillarni onlayn bronlash tizimlarining ham bir necha turlari rivojlangan. Ulardan eng ko'p tarqalgani esa OTA (Online Travel Agents), ya'ni onlayn sayohat agentliklaridir. OTAlar bir nechta yetkazib beruvchilardan avtomobil ijarasi takliflarini jamlaydi va ularni bitta platformada taqdim etadi. Eng ko'p foydalaniladigan OTAlarga Rentalcars.com, Expedia Car Rentals va Discover Cars tizimlarini misol qilib olish mumkin. Bu tizimlar narxlarni, avtomobil sinflarini va ijara shartlarini markazlashtirilgan holda taqqoslash, birlashtirilgan xizmatlar uchun aviakompaniyalar va mehmonxonalar bilan integratsiya qilish, komissiyaga asoslangan daromad modellarini yaratish, ko'p tilli imkoniyatlar hamda kuchli global ta'sir xususiyatlariga ega.

Ikkinchi tur avtomobillarni ijaraga berishni onlayn bronlash imkoniyatini ijaraga beruvchi kompaniyaning to'g'ridan to'g'ri ijaraga berish platformalari tashkil etadi. Bu tizimlar an'anaviy avtomobil ijarasi provayderlari tomonidan boshqariladigan, kompaniyaga tegishli tizimlar hisoblanadi. Bu tizimlarning bugungi kunda foydalanuvchilar orasida eng mashhurlariga Hertz, Avis, Budget va Enterprise kabi platformalar kiradi. To'g'ridan to'g'ri ijaraga beruvchi tizimlar mijozlari bilan doimiy to'g'ridan to'g'ri munosabatlarni boshqarish, sodiqlik dasturlari va korporativ shartnomalarni olib borish, narxlar va parklarning mavjudligi ustidan to'liq nazorat o'rnatish, OTA bilan solishtirganda komissiya xarajatlarini kamaytirish kabi xususiyatlar bilan ifodalanadi. To'g'ridan to'g'ri bron qilish platformalari, ayniqsa, ishbilarmon sayohatchilar va uzoq muddatli ijaralar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yerda brend ishonchi va xizmat ko'rsatish barqarorligi juda muhimdir.

Avtomobillarni ijaraga berishni onlayn bronlash tizimlarining yana bir muhim turi mavjud bo'lib, ular meta-qidiruv platformalari sanaladi. Biroq e'tiborli jihati shundaki, bu platformalar ijarani to'g'ridan to'g'ri sotmaydi, balki OTAlar va to'g'ridan to'g'ri bronni amalga oshiruvchi provayderlar bo'ylab takliflarni solishtirish imkonini beradi. Bunday meta-qidiruv tizimlariga Kayak, Skyscanner (avtomobil ijarasi) va Momondo yorqin misol bo'la oladi. Ushbu tizimlarning xususiyatlari haqida gapirganda bir nechta kanallar bo'yicha narxlarni taqqoslash imkoniyati, yakuniy bron qilish uchun yetkazib beruvchilarga yoki OTAlarga yo'naltirish, yuqori shaffoflik va

1 Manba: [1,2,6,7,9,10] asosida muallif tomonidan tuzilgan



foydalanuvchi nazorati, iste'molchining qaror qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi hamda avtomobil ijarasi bozorida narx raqobatiga sezilarli ta'sir o'tkazishi kabi jihatlarni sanab o'tish joiz (2-jadval).

2-jadval. Avtomobil ijarasi bozorida yetakchi onlayn bronlash tizimlarining turlari, bozor ulushi va geografik qamrovi²

No	Tizim nomi	Tizim turi	Global bozor ulushi	Oylik tashriflar/foydalanuvchilar	Geografik yondashuv
1	Rentalcars.com	Onlayn agentliklar	~onlayn avtomobil ijarasi bronlarining 30-35%i	50 milliondan ortiq kirishlar	Global miqyosda
2	Expedia Car Rentals	Onlayn agentliklar	~18–20%	40 milliondan ortiq foydalanuvchilar	Shimoliy Amerika, Yevropa
3	Hertz (Online & App)	Birlamchi Provayder	~to'g'ridan to'g'ri onlayn buyurtmalarining 15%i	30 milliondan ortiq foydalanuvchilar	Global miqyosda
4	Avis / Budget	Birlamchi Provayder	~13–14%	25 milliondan ortiq foydalanuvchilar	AQSH hamda Yevropa
5	Enterprise Rent-A-Car	Birlamchi Provayder	~12–13%	20 milliondan ortiq foydalanuvchilar	Shimoliy Amerika
6	Kayak (Car Rental)	Meta-qidiruv	~10% (qiriduvlar ulushi)	80 milliondan ortiq foydalanuvchilar	Global miqyosda
7	DiscoverCars	Onlayn agentliklar	~7–8%	10 milliondan ortiq foydalanuvchilar	Yevropa va rivojlanayotgan bozorlar

Turizm sanoatining yana bir ajralmas va muhim bo'lagi borki, sayohatchilarning doimiy e'tibor markazidan bu jihat chetda qolmaydi. Ovqatlanish sektori raqamlashtirish jarayonida yangilanib borish bilan bir qatorda yangi innovatsion tizimlar bilan integratsiyalashuv jarayonida ijobiy o'zgarishlarga ham uchramoqda. Onlayn bronlash tizimlari ovqatlanish sanoatiga aloqador bo'lgan korxonalarni bron qilishda raqamli axborot tizimlariga tayangan holda, mijozlarga veb-saytlar yoki mobil ilovalar vositasida joy band qilish va buyurtma berish imkonini yuzaga keltirdi. Ushbu onlayn platformalar real vaqt rejimida stol mavjudligini, bron qilish jadvalini, mijozlarning bronga aloqador ma'lumotlarini va ovqatlanish korxonalari bilan mijoz o'rtasidagi aloqalarni boshqarish funksiyasini bajaradi. Bu tizimlar nafaqat ish jarayonini yengillashtiradi, balki ish samaradorligini oshirish barobarida mijozlarda shaxsiy tajribani ham yaxshilashga yordam beradi. Ovqatlanish korxonalarini onlayn bronlash tizimlari egalik, funktsionallik va biznes modeli asosida tasniflanishi mumkin.

Ovqatlanish korxonalarini bron qilishning bugungi kunda eng ko'p tarqalgan turi bu — to'g'ridan to'g'ri bron qilish tizimi (ichki tizim). Ushbu tizimlar alohida faoliyat yurituvchi restoranlar, ovqatlanish shoxobchalari va kafelarning shaxsan o'ziga tegishli bo'lib, ularning rahbariyati tomonidan boshqariladi hamda rasmiy veb-sayti yoki mavjud mobil platformalariga integratsiyalashgan holda ishlaydi. Bunday tizimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular rezervatsiya qilish qoidalari, mijozlarga o'rinlar va o'tirish tartibini shaxsan o'zlari nazorat qiladi. Bundan tashqari, mijozlar bilan ishlashda to'g'ridan to'g'ri aloqani o'rnatish, sodiqlik dasturlari bilan integratsiya jarayonlari va kamaytirilgan komissiya xarajatlari ham ushbu turdagi tizimlarning ustunlik tomonlarini yanada oshiradi. Bu tizimlardan ko'p hollarda yuqori darajadagi yulduzlar va tasniflarga sazovor restoranlar hamda bir nechta zanjir korxonalarga ega ovqatlanish subyektlari foydalanadi.

Onlayn bronlash platformalari, ya'ni onlayn agentliklar (OTA), bir vaqtning o'zida real vaqt rejimida ovqatlanish sektorida faoliyat yuritayotgan bir nechta korxonalarining ma'lumotlarini o'zida saqlagan holda foydalanuvchilarga joylar bo'yicha jadvallarni qidirish va bron qilish imkonini beradi. Bu tizimlar odatda komissiya yoki obunaga asoslangan modellar asosida faoliyat olib boradi hamda kuzatuv va baholashning aniq tizimlariga ega bo'ladi. Qolaversa, ushbu tizimlar mijozlarga bir xil darajadagi xususiyatlarga ega ovqatlanish korxonalarini taqqoslash imkonini ham yaratadi. Onlayn agentliklarga shaharlarda va turizmga asoslangan bozorlarda talab ayniqsa yuqori.

Ovqatlanish korxonalarining yana bir ko'p foydalaniladigan turi bu meta-qidiruvlarga asoslangan platformalardir. Ularning ajralib turuvchi jihati shundaki, ular foydalanuvchilarni bron qilish kanallariga yo'naltiradi va mijozlar so'roviga mos ovqatlanish korxonalarini topishga yordam beradi. Meta-qidiruvlar mijozlarga qidiruv jarayonida erkinlikni ta'minlash barobarida taqqoslashni mijozning o'z ixtiyoriga qoldiradi hamda qaror qabul qilishda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tizimlarning alohida jihati shundaki, ular xaritalar va foydalanuvchilarning (tashrif buyuruvchilarning) sharhlari bilan o'zaro integratsiyaga ega. Qolaversa, bu turdagi tizimlarda bron qilish jarayonida nazoratning kamligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

2 Manba: [3,4,5,8,9] asosida muallif tomonidan tuzilgan



Shu bilan birga, mobil ilovalarga asoslangan tizimlar ham bugungi yosh foydalanuvchilar orasida juda ommalashmoqda. Bu tizimlar mobil foydalanishning qulayligi va real vaqt rejimida bron qilish imkoniyatini birinchi o'ringa qo'yadi. Push-bildirishnomalar va mijozlarga eslatmalar ushbu tizimlarning ajralib turuvchi xususiyatlaridandir. Yana shunisi e'tiborga molikki, foydalanuvchining joylashuviga asoslangan holda yaqin atrofdagi ovqatlanish korxonalarini kashf etishga yordam beradi. Ovqatlanish sektorida franchayzalar va restoran tarmoqlari uchun mo'ljallangan, bir tizim orqali bir nechta obyektlarni boshqarish imkonini beruvchi platformalar ham shakllanib ulgurdi. Ushbu platformalar orqali markazlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, korporativ hisobotlarni tayyorlash va prognozlash imkoniyati vujudga keladi. Ko'p tarmoqli ushbu boshqaruv tizimi POS dasturiy ta'minoti bilan integratsiyalashgan holda faoliyat olib boradi (3-jadval).

3-jadval. Restoranlar uchun onlayn bronlash tizimlarining turlari, bozor ulushi va geografik qamrovi³

No.	Tizim nomi	Tizim turi	Global bozor ulushi	Ro'yxatga olingan korxonalar	Geografik yondashuv
1	OpenTable	Onlayn agentliklar	~55–60%	60,000+	Shimoliy Amerika va Yevropa
2	TheFork (TripAdvisor)	Onlayn agentliklar	~20–25%	55,000+	Yevropa
3	Resy	Birlamchi Provayder/ ilova	~10–12%	20,000+	AQSh, Buyuk Britaniya
4	Quandoo	Onlayn agentliklar	~7–9%	17,000+	Yevropa, Osiyo hamda Tinch okeani
5	Yelp Reservations	Meta qidiruv	~6–8%	10,000+	AQSh
6	Google Reserve	Meta qidiruv	~5–7%	1 million +	Global miqyosda
7	Zomato (Reservations)	Onlayn agentliklar	~5%	50,000+	Osiyo

Tadqiqot natijalarini tahlil qilib, quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin. Avvalambor, onlayn bronlash tizimlarini ularning faoliyat turiga xosligiga ko'ra bir nechta turlarga: avia sohaga yo'naltirilgan, transport vositalariga aloqador, ovqatlanish korxonalariga moslashtirilgan, muzeylar, tomoshalar, ko'ngilochar dasturlar va tadbirlarni bron qilishga yo'naltirilgan tarmoqlarga ajratish mumkin. Ikkinchidan, bu tizimlarni faoliyat doirasi va bajariladigan funksiyalariga ko'ra ham farqlash mumkin. Tizimlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga ko'ra uning foydalanuvchilari ham xoslanib boradi.

Uchinchidan, tizimlarni geografik yondashuv orqali ham alohida guruhlariga ajratish mumkin. Onlayn platformalarning ayrimlari ma'lum mintaqada markazlashgan bo'lsa, ayrimlari ta'sir doirasi jihatidan global miqyosda ko'zga yaqqol tashlanadi. To'rtinchidan, statistik jarayonlar orqali har bir tizimning foydalanuvchilari yoki ushbu tizimga kirishlarning amalga oshirilishi natijalariga ko'ra ham ularni bir-biridan farqlash mumkin. Bu holat tizimlarning onlayn bronlarni amalga oshirishdagi ta'sir doirasini belgilab beradi. Beshinchidan, global bozordagi ulushlar orqali ham turizm sohasiga, sayohatlarning ijobiy tomonga o'zgarishiga va sayohatchilar sonining oshishiga hissa qo'shayotgan tizimlarning ahamiyatini aniqlab olish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aviatsiya, avtomobil ijarasi va restoran sohalarida onlayn bron qilish tizimlari zamonaviy raqamli xizmatlar ekotizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bu tizimlar bronlash jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida foydalanish imkoniyatini yaratish va xavfsiz onlayn to'lovlarni qo'llab-quvvatlash orqali operatsion samaradorlikni, xizmatlardan foydalanish imkoniyatini hamda mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini sezilarli oshiradi. Aviatsiya sohasida onlayn bronlash platformalari murakkab rejalashtirish va narxlash mexanizmlarini soddalashtiradi, tarqatish xarajatlarini kamaytiradi hamda aviakompaniyalar va yo'lovchilar o'rtasidagi global aloqani yaxshilaydi. Xuddi shunday, avtomobillarni ijaraga berishni bron qilish tizimlari parkni boshqarish, narx strategiyasi va mijozlarga o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishni optimallashtiradi, restoranlarni bron qilish platformalari esa stollardan foydalanish, talabni prognozlash va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishni takomillashtiradi.

Umuman olganda, onlayn bronlash tizimlarining uzluksiz rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli transformatsiya, raqobatbardoshlik va barqarorlikka hissa qo'shadi. Kelajakdagi yutuqlar, jumladan sun'iy intellekt, mobil yechimlar va integratsiyalashgan ekotizim platformalari shaxsiylashtirish, samaradorlik va o'zaro

3 Manba: [3,5,7] asosida muallif tomonidan tuzilgan



muvofiglikni yanada oshirishi kutilmoqda. Shu sababli, onlayn bronlash tizimlarini samarali joriy etish va doimiy innovatsiyalarni amalga oshirish rivojlanayotgan iste'molchilar talablarini qondirish hamda uzoq muddatli bozor dolzarbligini saqlab qolishga intilayotgan tashkilotlar uchun muhim bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amadeus IT Group. (2024). Annual report 2024. Amadeus IT Group. <https://www.amadeus.com>
2. Avis Budget Group, Inc. (2024). Annual report 2024. Avis Budget Group. <https://ir.avisbudgetgroup.com>
3. Booking Holdings, Inc. (2024). Company statistics and performance overview. Booking Holdings. <https://www.bookingholdings.com>
4. Enterprise Holdings, Inc. (2024). Company profile. Enterprise Holdings. <https://www.enterpriseholdings.com>
5. Expedia Group, Inc. (2024). Form 10-K: Travel segment and financial data. U.S. Securities and Exchange Commission. <https://www.sec.gov>
6. Mobile Marketing Genius. (2024). Top flight booking apps by usage worldwide. Mobile Marketing Genius. <https://mobilemarketinggenius.com>
7. Statista. (2024). Online travel booking market worldwide. Statista GmbH. <https://www.statista.com>
8. Statista. (2024). Online car rental booking market worldwide. Statista GmbH. <https://www.statista.com>
9. Trip.com Group Limited. (2024). Annual report 2024. Trip.com Group. <https://www.trip.com>
10. YStats. (2024). Global online flight booking behavior. YStats.com. <https://www.ystats.com>
11. Buhalis D. eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. — Pearson, 2003.
12. Ismatillaeva S. JAHONDABRONLASHTIZIMLARININGRIVOJLANISHBOSQICHLARININGEVOLYUTSIYASI.GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(12), 2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
